




RUS MADANIYATI VA TILINING DUNYOGA TA'SIRI

**Nizomova Sevinch Xurshid qizi**

Samarqand Davlat Chet Tillari Instituti

Filologiya va tillarni o'qitish fakulteti

1 -kurs turk tili talabasi

Ilmiy Rahbar: Xolmuradova Nigora Faxridinovna

Annotatsiya: Rus madaniyati va tili asrlar davomida jahon sivilizatsiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Rossiya tarixi, adabiyoti, san'ati va ilm-fanidagi ulkan yutuqlar orqali butun dunyo rus madaniyati bilan tanishgan. O'z davrida dunyo tili maqomiga ko'tarilgan bu til hozirda ham dunyo aholisi orasida ahamiyatiga ega. Rus tili bilan birga uning madaniyati ham birdek shakllanib, rivojlanib borgan. Ushbu maqolada rus tilining xalqaro maydondagi o'rni, madaniy ta'siri va uning turli sohalardagi ahamiyati haqida bat afsil ma'lumot bermoqchiman.

Kalit so'zlar: madaniyat, sivilizatsiya, tarix, adabiyot, san'at, ilm-fan, yutuqlar.

Русская культура и влияние её языка на мир

Аннотация: Русская культура и язык на протяжении веков оказывали значительное влияние на мировую цивилизацию. Через огромные достижения России в истории, литературе, искусстве и науке весь мир познакомился с русской культурой. Этот язык, который когда-то поднялся до статуса мирового языка, до сих пор остается важным среди мирового населения. Вместе с русским языком развивалась и его культура. В данной статье я хочу подробно рассказать о месте русского языка на международной арене, его культурном влиянии и значении в различных сферах.



Ключевые слова: культура, цивилизация, история, литература, искусство, наука, достижения.

Asosiy qism:

1 . Rus tili:

Jahon miqyosidagi ahamiyati:

Rus tili — dunyodagi eng ko'p tarqalgan tillardan biri bo'lib, bugungi kunda dunyodagi eng ko'p so'zlashiladigan tillardan biri bo'lib, rus tili taxminan 260 million kishi tomonidan ishlataladi, ulardan 160 millioni ona tilida gapiradi. U:

Ona tili sifatida so'zlashuvchilar soni bo'yicha dunyoda 8-o'rinda turadi, ya'ni, geosiyosiy ta'sir rus tili va xalqlari uchun shu darajaga kelishi uchun sabab bo'lgan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) rasmiy tillaridan biri hisoblanadi. BMTning rasmiy veb saytlarida, hujjatlarda va xabarlarda asosan rus tilida so'zlashiladi. Buning sababiga keladigan bo'lsak, bu til dunyoda keng tarqalgan va uning siyosiy, iqtisodiy, madaniy ahamiyati katta. BMTda rasmiy tillar sifatida 6 ta til qabul qilingan, ular: ingliz, fransuz, ispan, rus, arab va xitoy tillari.

MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi) va Sharqiy Yevropada muhim aloqa vositasi bo'lib kelmoqda. MDH davlatlari orasida turli tillar mavjud bo'lsa ham, rus tili umumiyoq aloqa tili(lingua franca) sifatida ishlataladi. Turli millat vakillari, jumladan, o'zbek, tojik, qirg'iz, qozoq, arman va boshqa xalqlar rus tilida muloqot qilishni oson deb bilishadi.

Rus tili ayniqsa ilm-fan va kosmonavtika sohasida katta ahamiyatga ega. Sobiq Sovet Ittifoqi kosmonavtikaning asoschilaridan biri bo'lganligi va ilk sun'iy yo'ldosh va koinot parvozi SSSR tomonidan amalga oshirilganligi sababli, bugungi kunda ham xalqaro kosmik ekspeditsiyalar rus tilidan foydalanadi. Kosmonavt bo'lishni istagan har bir kishi rus tilini o'rganishi talab etiladi. Ilmiy texnologiyalar va muhandislik sohalarida ham kosmonavtika bilan bog'liq bo'lgan muhim ilmiy adabiyotlar, xususan,

raketa texnologiyalari, sun'iy yo'ldosh tizimlari va orbitaga chiqish texnologiyalari bo'yicha tadqiqotlar rus tilida keng yoritilgan.

Dunyodagi eng mashhur adabiy asarlar rus tilidan tarjima qilingan. Lev Tolstoy, Fyodor Dostoyevskiy, Anton Chexov, Aleksandr Pushkin kabi yozuvchilarining asarları, misol uchun Lev Tolstoyning “Urush va tinchlik” romani butun dunyo adabiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatgan. Unda Napoleon urushlari davridagi Rossiya hayoti aks ettirilgan bo'lib, shu bilan birga inson hayotining falsafiy jihatlari ham yoritilgan. Kitob urush va tinchlik o'rtasidagi ziddiyatni tahlil qiladi va bugungi kundagi global mojarolarni tushunishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Rossiya jahon iqtisodiyotining yirik ishtirokchilaridan biri — Rossiya tabiiy gaz va neft eksporti bo'yicha yetakchi davlatlardan biri bo'lib, xalqaro iqtisodiy hamkorlikda rus tilining ahamiyati katta. Yevroosiyo bo'ylab savdo tili — MDH davlatlarida va Markaziy Osiyoda rus tili biznes va savdo munosabatlarida keng qo'llaniladi. Yevroosiyo hududida turli tillarda so'zlashuvchi xalqlar yashaydi, ammolular o'rtasida umumiyl til sifatida rus tili ishlatiladi. Masalan, o'zbek tadbirkorlari Qozog'iston, Rossiya yoki Belarus bilan biznes qilganda ko'pincha rus tilida muzokara olib borishadi.

Ish imkoniyatlari — Rossiya va boshqa rus tilida so'zlashuvchi davlatlarda ishslashni istaganlar uchun rus tilini bilish katta ustunlik hisoblanadi. Buning sababi esa hammaga ma'lum, ya'ni, o'z yashayotgan joy va muloqotda bo'layotgan odamlarning ona tilini bilish, bu hudud va odamlarga tezroq moslashish va o'z o'rnini topishga kafolat bo'ladi. Bu kafolat esa – Til.

Rus tili dunyo miqyosida muhim ahamiyatga ega bo'lib, ilm-fan, madaniyat, siyosat va iqtisodiyotda yetakchi o'rinn tutadi. U xalqaro miqyosda ishlatiladigan tillardan biri bo'lib, uni va uning dunyoga ta'sirini o'rganish ko'plab sohalarda yangi imkoniyatlar yaratishi mumkin. Vaholanki, o'tmishda ham kelajakda ham rus tili eng kerakli tillar qatorida muhim o'rinn egallagan holatda qolaveradi.

2. Rus madaniyatining dunyoga ta'siri:

Rus adabiyoti nafaqat jahon badiiy adabiyotiga, balki falsafaga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Dostoyevskiy va Tolstoyning asarlari inson ruhiyatini chuqur tahlil qilgani bilan mashhur. Shuningdek, Nikolay Berdyayev va Mixail Bakhtin kabi rus faylasuflari g'oyalari hozirgi zamonaviy falsafada ham muhim o'rinni tutadi. Misol tariqasida, Berdyayevni aytadigan bo'lsak, u insonni ijodkor mavjudot deb hisoblaydi. Uning fikricha:

Erkinlik insonning eng asosiy mohiyatidir. Haqiqiy erkinlik tashqi qonunlar yoki jamiyat tomonidan berilmaydi, balki ichki ruhiy tanlovdan kelib chiqadi. Ijod insonning eng oliy maqsadlaridan biri bo'lib, faqar ijod orqali inson o'zligini anglaydi va rivojlanadi. Bugungi kunda bu g'oyalalar texnologik inqilob, sun'iy intellekt va insonning roliga oid bahslarda muhim bo'lib qolmoqda. Texnologiyalar rivojlanishi erkinlikni oshiryaptimi yoki cheklayaptimi? Bu savollar Berdyayev falsafasini dolzarb qiladi.

Rossiya musiqa va balet san'atida yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Pyotr Chaykovskiy, Sergey Raxmaninov, Igor Stravinskiy kabi kompozitorlarning ijodi jahon musiqasida katta o'rinni tutadi. Dunyoning ko'plab balet maktablari rus balet texnikalariga asoslangan. Mashhur "Bolshoy teatr" va "Mariinskiy teatr" sahnalari balet san'atining markazlaridan biri hisoblanadi.

Sovet davrida rus kinosi dunyo miqyosida juda mashhur bo'lib, bugungi kunda ham rus kinolarining ta'siri sezilmoqda, Andrey Tarkovskiy, Sergey Eisenstein kabi rejissyorlar kinoda yangi uslub va texnikalarni olib kelgan. "Qishloq doktori", "Staker", "Ivan bolalik" kabi filmlar kinosevarlar orasida hanuzgacha mashhurligini saqlab qolgan.

Rus olimlarining kashfiyotlari butun dunyo ilm-faniga katta ta'sir ko'rsatgan va texnologik taraqqiyotga xizmat qilgan. Misol uchun aytadigan bo'lsak: Dmitriy Mendeleyev — Uning davriy jadvali butun jahon kimyo ilmida asosiy tamoyilga

aylandi. Konstantin Tsiolkovskiy — Kosmik tadqiqotlarning ilmiy asoslarini yaratgan va kosmonavtikaning rivojlanishiga hissa qo'shgan. Yuriy Gagarin — 1961-yilda birinchi bo'lib koinotga parvoz qilgan inson bo'lib, insoniyat tarixida yangi davr boshlab bergan.

Rus madaniy an'analari va urf-odatlari turli mamlakatlarda o'z aksini topgan va turli san'at hamda madaniyat shakllariga ilhom bergan. Jumladan, rus folklori — Baba Yaga, Ivan Tsarevich, Zmey Gorynych kabi xalq ertaklari jahon madaniy merosining muhim qismlaridan biri hisoblanadi.

Matryoshka qo'g'irchog'I - Rus an'anaviy qo'g'irchog'I bo'lib, butun dunyoda tanilgan va ko'plab do'konlarda sotiladi.

Rus oshxonasi — Borsh, pelmeni, blinchik, okroshka, kvass kabi milliy taomlar va ichimliklar boshqa xalqlarning oshxonalariga ham ta'sir ko'rsatgan.

Maslenitsa – qish bilan xayrlashish va bahorni kutib olish bayrami bo'lib, blinchiklar pishiriladi.

Provashov Rojdestvosi va Pasxa – butun Rossiyada nishonlanadigan diniy bayramlar va ularda ham o'ziga xos bo'lган bir qancha marosimlar amalga oshiriladi.

Rus choyi ichish marosimi – samovar choyi va murabbo bilan choyxo'rlik qilish ruslar uchun mehmonso'stlik ramzi hisoblanadi.

Rus madaniyati adabiyot, musiqa, balet, teatr, kino, ilm-fan va urf-odatlari orqali butun dunyoga ulkan ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, adabiyot va musiqada rus ijodkorlari jahon madaniyatiga chuqur iz qoldirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Dunyo bo'yicha rus tilida so'zlashishning ahamiyati" H.A.Botirova va S.N. Sattorova
2. "Rus tilining rivojlanish tarixi va uning jahon miqyosidagi ahamiyati". M. X.



Mavluda. www.in-academy.uz

“Rus tili madaniyati” Maslov. V. G. 2010-1 60bet.

“Rus tilining rivojlanish tarixi va uning jahon miqyosidagi ahamiyati”. M. A. Muhammadali. 2021

“Rus madaniyati”. uzpedia.uz

“Rus madaniyati tarixi” 2020

”Rus madaniyati haqida suhbatlar” — Yuriy Lotman.

“Rossiya madaniyati haqida” (govoriru.uz)

